

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

DUSHAMOV MAXMUDJON MAKSUDBEKOVICH

**BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MARKETING
STRATEGIYASI (TIJORAT BANKLARI MISOLIDA)**

08.00.11 - “Marketing”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich

Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing strategiyasi (tijorat banklari misolida)5

Душамов Махмуджон Максудбекович

Маркетинговая стратегия повышения эффективности банковских услуг (на примере коммерческих банков).....25

Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich

Marketing strategy for improving the efficiency of banking services (on the example of commercial banks).....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published articles49

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYXON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

DUSHAMOV MAXMUDJON MAKSUDBEKOVICH

**BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA
MARKETING STRATEGIYASI (TIJORAT BANKLARI MISOLIDA)**

08.00.11 - “Marketing”

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Iqt6133 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch Davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mahmudov Bahriddinxon Jo'rayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Matyakubov Umidjon Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sultonov Baxtiyor Baxodirovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2026-yil "_____" _____dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida bank sektorining roli tobora ortib bormoqda. Jahon boʻylab bank tizimi 2023-yilda 82 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi mablagʻni marketing amaliyotlariga sarflagan¹. Marketing strategiyasining puxta ishlab chiqilmaganligi mijozlar qoniqishining kamayishiga, hatto ularning tark etish ehtimolini ortishiga olib kelishi mumkin. Moliyaviy tashkilotlar har yili mijozlarining oʻrtacha 15 foizini qoʻldan boy beradi². Kuchli raqobat muhiti, mijozlarning talablarining oʻzgarishi va raqamli texnologiyalarning tez surʼatlarda rivojlanishi banklarni oʻz xizmatlarining samaradorligini oshirishga, mijozlarning qoniqishini taʼminlashga va foydani maksimallashtirishga majbur qilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, bank xizmatlari marketingining ahamiyatini yanada oshiradi.

Jahonda tijorat banklarining imiji, mijozlar qamrovini oshirish, moliyaviy koʻrsatkichlarini yaxshilash va bunda marketing tadqiqotlari va strategiyalarini oʻrni hamda ahamiyatini oʻrganish boʻyicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, bankning raqobatbardoshligini oshirish, yangi mijozlarni jalb qilish, mijozlarning sadoqatini oshirish va foydani oshirishda marketing yondashuvini kuchaytirish, turli marketing instrumentlaridan foydalanish hamda har xil strategiyalarni qoʻllashning samarasini oʻlchash, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar vositalarini qoʻllash imkoniyatlarini izlash ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanadi.

Yangi Oʻzbekistonning bank sektorida ham marketing strategiyalarini takomillashtirish, mijozlarga yoʻnaltirilganlikni oshirish, raqamli marketing instrumentlarini samarali qoʻllash va bank xizmatlarining samaradorligini oshirish borasida tobora keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son farmonida³ ham tijorat banklari faoliyatiga yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish vazifalari qoʻyilgan. Shu sababli, bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing strategiyasini oʻrganish, uning amaliy ahamiyatini koʻrsatish va tijorat banklariga aniq tavsiyalar berishni taqozo qilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi “Oʻzbekiston-2030” strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-158-son, 2024-yil 30-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan toʻrtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi PF-132-son, 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-5992-son farmonlari, 2017-yil 20-dekabrda “Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3439-son qarorlari

¹ <https://seosandwitch.com/bank-marketing-statistics/>

² <https://www.fiworks.com/resources/statistics>

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020 — 2025-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-5992-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4811025>

hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Har bir tashkilot, shu jumladan, banklarda marketing tadqiqotlarini olib borish, yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqishni hamda amalda qo'llashning nazariy, amaliy va uslubiy jihatlarini qator xorijiy olimlar – Christine Ennew, Nigel Waite, Terence A. Shimp, Evelyn Ehrlich, Duke Phanelli, Lyonnet Victor, Edouard Chretien, F. Brassington, S. Pettitt⁴ va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida aks ettirilgan

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida marketingning nazariy hamda uslubiy jihatlarini A.S.Vorojun, D.N.Vladuslavlev, O.I.Lavrushina, G.P.Koptayeva, A.P.Xodjabayeva, K.A.Smirnov, T.Ye.Nikitina, A.M.Tavsiyev⁵ kabi olimlar ishlarida tadqiqot mavzusi bo'lgan. Banklarda qo'llaniladigan marketing usullari va strategiyalarining o'ziga xos jihatlarini hamda uni turli moliyaviy tashkilotlar amaliyotiga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berishga ushbu olimlar tomonidan e'tibor qaratilgan.

Bank marketingi asoslari, uni O'zbekistonda faoliyat yurituvchi moliya muassasalari ish jarayonida qo'llash mexanizmlari va vazifalari, bunda takomillashtirilishi bilan bog'liq ayrim tashkiliy masalalar o'zbekistonlik A.A. Azlarova, M.M. Abduraxmanova, R.Alimov, J.Jalolov, I.Xotamov, T.Akramov, O.A.Ortiqov, F.I.Mirzayev, N.Q.Yo'ldoshev, M.M.Azlarova, G.Y.Xo'djamuratova⁶ kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Ammo, yuqorida tilga olingan olimlar izlanishlarida mamlakatimizdagi banklar amaliyotida marketing strategiyalarini rivojlantirish masalalari keng yoritib berilishiga qaramasdan, uni mamlakatimiz iqtisodiyotida amalda qo'llashda qarshilik sharoitlarni muvofiqlashtirishga ehtiyoj bo'lib, uslubiy hamda tegishli mutaxassislarni o'qitish

⁴ Financial Services Marketing: An international guide to principles and practice. Christine Ennew, Nigel Waite. Butterworth-Heinemann; 1 edition 2006. 416 p. Integrated Marketing Communications in Advertising and Promotion, 7th Edition. Terence A. Shimp. 2007. 629 p. The Financial Services Marketing Handbook: Tactics and Techniques That Produce Results. Evelyn Ehrlich, Ph.D. and Duke Phanelli. 2006. 280 p. Lyonnet, Victor, and Edouard Chretien, 2023, Why do traditional and shadow banks coexist?, Fisher College of Business Working Paper 2019-03-011. Brassington F. and Pettitt S. (2000). Principles of Marketing, 2nd Edition, Harlow: Pearson Education Limited

⁵ Ворожун А.С. Банковский маркетинг: практическое пособие/А.С.Ворожун; М-во образования Республики Беларусь, Гомельский гос. ун-т им. Ф. Скорины. – Гомель: ГГУ им. Ф. Скорины, 2016. – 47 с. ISBN 978-985-577-218-8. Владиславлев Д. Н. Энциклопедия банковского маркетинга и менеджмента / Д. Н. Владиславлев. – Москва : Ось-89, 2011. – 352 с. Лаврушина О.И. Устойчивость банковской системы и развитие банковской политики. Монография/коллектив авторов.-М.: КНОРУС, 2014.-280 с. Коптаева Г.П., Ходжабаева А.П. Банковский менеджмент и маркетинг: Учебное пособие.–Шымкент: Университет «Мирас», 2019. - 100 стр. Смирнов К.А. Маркетинг на финансовом рынке: учебное пособие для студентов высших учебных заведений/К.А. Смирнов, Т.Е.Никитина. – Москва: Инфра-М, 2013. – 205 с. Тавсиев А.М. Банковское дело: банковские операции для клиентов: учеб./под ред. А. М. Тавсиева. - М.: Финансы и статистика, 2016. - 311 с.

⁶ Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Bank marketingi va menejmenti: O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. -199 b. Алимов Р., Жалолов Ж., Хотамов И., Акромов Т. Маркетингни бошқариш. -Т: Адолат, 2000. Ortiqov O. A. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2015. 220 b. Mirzayev F.I. — Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. –T.: —Moliya, 2008 y. Yo'ldoshev N.Q., Azlarova M.M., Xo'djamuratova G.Y. "Menejment va marketing asoslari": (O'quv qo'llanma). - T.: TDIU, 2012 y

bilan bog'liq amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu muammolar qoniqarli darajada o'rganilmaganligi hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi, uni dissertatsiya mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi Tijorat banklarining marketing strategiyalarini tahlil qilish, bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan marketing strategiyalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xizmatlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslari hamda unda marketingning ahamiyatini tadqiq qilish;

tijorat banklari amaliyotida qo'llanadigan marketing strategiyalarining joriy holatini tahlil qilish;

bank xizmatlari bozoridagi raqobatni baholash hamda uni rivojlantirishning marketing tahlilini amalga oshirish;

bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing instrumentlarining rolini o'rganish;

mijozlarga yo'naltirilganlikni oshirish, raqamli marketing instrumentlarini samarali qo'llash va bank xizmatlarining samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

O'zbekistonning bank sektorida marketing strategiyasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashkiliy chora-tadbirlarni baholash asosida mamlakatimiz, shu jumladan hududlar iqtisodiyotini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib mamlakatimiz tijorat banklarining marketing strategiyalari, bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan marketing instrumentlari va ularni qo'llash amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil, anketa-so'rovnoma, tahlil va sintez, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

bank xizmatlari samaradorligini oshirishda xizmatlar xususiyati, narx siyosati, xodimlar xatti-harakati, mijozlar bilan aloqaga asoslangan bank xizmatlari bozorini kompleks rivojlantirishning marketing modeli taklif etilgan;

bank xizmatlari sifatini oshirishda mijozga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar va Super App (mijozlar uchun to'lovlar, kreditlar, investitsiya, sug'urta va onlayn xizmatlarni bir joyda boshqarish imkonini beradigan) lardan samarali foydalanish bo'yicha marketing strategiyasi taklif etilgan;

tijorat banklari tomonidan bank marketing strategiyasining asosiy yo'nalishlari (ustuvorlik beriladigan mijozlar segmenti, bank mahsulotlari va hududlar) ochiq ma'lumotlar (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) asosida raqamli marketingdan samarali foydalanish sxemasi taklif etilgan;

tijorat banklari faoliyatida marketing strategiyalarini qo'llash natijasida jalb qilingan jami depozitlarning 2030 yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari faoliyatida marketing strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari tizimlashtirilgan;

ma'lumki, marketing strategiyasi bank va mijoz o'rtasida ishonchni kuchaytiradi. Shuning uchun, marketing faoliyati natijalarini muntazam tahlil qilish personallashtirilgan jarayonlarni raqamlashtirish, mijozning daromadi, xarajatlari va moliyaviy maqsadlariga qarab maxsus kredit, depozit yoki investitsiya mahsulotlarini taklif qilish, Super App (mijozlar uchun to'lovlar, kreditlar, investitsiya, sug'urta va onlayn xizmatlarni bir joyda boshqarish imkonini beradigan) lardan samarali foydalanish bo'yicha marketing strategiyasi ishlab chiqilgan. Bunday strategiya orqali kichik segmentlarga ajratish IT sohasida faoliyat yurituvchilar, frilanserlar, kichik biznes egalari, eksportchilar, bank mahsulotlari foiz stavkalari va mijozlarni jalb qilish qiymati (CAC), mijoz hayotiy qiymati (CLV), raqamli kanallar orqali mijozlar soni, xizmat haqlarini bozor sharoiti, raqobat va mijoz profiliga qarab dinamik ravishda o'zgarishini nazorat qilishga yordam beradi;

tijorat banklari tomonidan bank marketing strategiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ladigan – mijozlar va ularga taqdim etiladigan xizmatlarni segmentlash jarayonini raqamli marketing instrumentlaridan foydalangan holda amalga oshirish tizimi asoslab berilgan;

bank xizmatlari bozorini rivojlantirishda foydalaniladigan marketing modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy ishda foydalanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, respublika miqyosidagi va halqaro tashkilotlar statistik ma'lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi, amalga oshirilgan tahlillar asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tijorat banklari tomonidan qo'llanadigan marketing strategiyasi va instrumentlariga oid nazariy-uslubiy maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertasiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalarida "Bank ishi", "Bank menejmenti va marketingi" va "Tijorat banklarida marketing" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish, va o'qitishda, shuningdek, tijorat banklari strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari faoliyatini rejalashtirishda, xususan, bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Bank xizmatlari bozorini kompleks rivojlantirish bo'yicha taklif etilgan marketing modeli AT "Aloqabank" aksiyadorlarining 2023-yil 30-noyabrdagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "AT Aloqabankning 2024-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Aloqabank"ning 2026-yil 19-martdagi 05-04/1922-sonli ma'lumotnomasi). Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat

banklari o'z faoliyatini rejalashtirishda hamda marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ushbu modeldan ham foydalanib kelmoqdalar;

Bank xizmatlari sifatini oshirishda mijozga yo'naltirilgan yondashuv, raqamli texnologiyalar va Super App (mijozlar uchun to'lovlar, kreditlar, investitsiya, sug'urta va onlayn xizmatlarni bir joyda boshqarish imkonini beradigan) lardan samarali foydalanish bo'yicha taklif etilgan marketing strategiyasi AT "Aloqabank" aksiyadorlarining 2023-yil 30-noyabrdagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "AT Aloqabankning 2024-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Aloqabank"ning 2026-yil 19-martdagi 05-04/1922-sonli ma'lumotnomasi). Bu taklif bank va mijoz o'rtasida ishonchni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, ushbu strategiya orqali kichik segmentlarga ajratish IT sohasida faoliyat yurituvchilar, frilanserlar, kichik biznes egalari, eksportchilar, bank mahsulotlari foiz stavkalari va mijozlarni jalb qilish qiymati (CAC), mijoz hayotiy qiymati (CLV), raqamli kanallar orqali mijozlar soni, xizmat haqlarini bozor sharoiti, raqobat va mijoz profiliga qarab dinamik ravishda o'zgarishini nazorat qilishga yordam bermoqda;

Tijorat banklari tomonidan bank marketing strategiyasining asosiy yo'nalishlari (ustuvorlik beriladigan mijozlar segmenti, bank mahsulotlari va hududlar) ochiq ma'lumotlar (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) asosida raqamli marketingdan samarali foydalanish bo'yicha taklif etilgan sxema AT "Aloqabank" kuzatuv kengashi qarori bilan tasdiqlangan "AT Aloqabankning 2026-yilga mo'ljallangan biznes rejasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Aloqabank"ning 2026-yil 19-martdagi 05-04/1922-sonli ma'lumotnomasi). Bu sxema yordamida tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

Tijorat banklari faoliyatida marketing strategiyalarini qo'llash natijasida jalb qilingan jami depozitlarning 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari AT "Aloqabank" aksiyadorlarining 2023-yil 30-noyabrdagi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan "AT Aloqabankning 2024-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (AT "Aloqabank"ning 2026-yil 19-martdagi 05-04/1922-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, 2030-yilga kelib marketing strategiyalarini qo'llash natijasida bank tizimidagi jami depozitlar 23 foizga oshib, qo'shimcha 7,4 mlrd. AQSh dollari ekvivalentidagi mablag'lar jalb qilinishiga erishilishi aniqlangan.

Ushbu ilmiy takliflar bank tizimini rivojlantirish, aholining bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan amaliyotlarni, marketing strategiyalarini ishlab chiqishda foydalanib kelinmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 5 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 1 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 6 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Bank xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida xizmatlar samaradorligini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari, tijorat banklarida xizmatlar samaradorligini oshirishda marketingni ahamiyati, bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketing qo'llanishini xorij tajribasi tadqiq qilingan.

Jahon iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda iqtisodiyotning mavjud tarmoqlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy taraqqiyotga mos ravishda yangi texnologiyalarni iqtisodiyotning har bir sohasiga, shu jumladan, bank sohasiga joriy etishni davrning o'zi taqozo qiladi.

Respublikamizda iqtisodiyotni taraqqiyotning yangi pog'onasiga olib chiqish, bu sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida⁷ bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish masalasi alohida belgilab qo'yildi.

Shuningdek, “2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-son farmoniga respublikamizdagi mavjud banklar va ulardagi muammolar, rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida bandlar kiritilgan.

Iqtisodiyotning bank sohasidagi asosiy muammo banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning bir xilligidan iboratdir. Banklararo raqobat muhitini rivojlantirish banklarda marketingni to'g'ri joriy etish, xizmatlar sonini ko'paytirish, o'z navbatida xorijiy davlatlardagi bank amaliyotlarini o'rganishni talab etadi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tizimda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida banklar faoliyatida davlat ishtiroki bosqichma-bosqich qisqartirilmoqda. Xususan, davlat dasturlari doirasidagi kreditlar foizi qayta moliyalash stavkasi bilan tenglashtirildi va

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2021-yildan to'liq erkinlashtirilishi belgilandi. Bu banklarni ko'proq mijoz topish, resurs jalb qilish, kredit ajratish bo'yicha izlanishga, rivojlanishga undaydi"⁸.

Shunday ekan, bank sohasini rivojlantirishning eng asosiy xususiyati marketingni sohaga to'g'ri joriy etishdir. Marketing konsepsiyasining tarkibiy qismlaridan biri xizmatlar va ularning turlari hisoblanadi. Xizmatlar deganda faoliyatlarning, ishlar va mashg'ulotlarning har xil turlarining ko'plab miqdori tushuniladi. Mashxur olim F.Kotler fikricha: "Xizmat – bu tomonlardan biri boshqasiga taklif qiladigan har qanday tadbir, faoliyat yoki foyda. Xizmatlarni ishlab chiqarish tovar bilan uning moddiy ko'rinishida bog'liq bo'lishi va bog'liq bo'lmasligi ham mumkin"⁹. Xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha har xil faoliyat turlarini birlashtiruvchi narsa – ashyoviy shakllarga ega bo'lmagan iste'molchilik boyliklarini ishlab chiqarishdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari amaliyotlari samaradorligi quyidagi qator omillarga bog'liq (1-rasm).



1-rasm. Xizmatlar sohasi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar¹⁰.

Xizmatlar sifatini baholash turli metodologiyalarni qo'llagan holda amalga oshiriladi. Ko'pgina zamonaviy modellar sifat va samaradorlikni alohida baholaydi. Misol uchun, SERVQUAL mijozlarning fikr-mulohazalari orqali qabul qilingan xizmat sifatini o'lchashda juda samarali, lekin ichki operatsion samaradorlikni hisobga olmaydi. Aksincha, DEA resurslardan foydalanish va unumdorlikka e'tibor qaratadi, lekin mijozlarga qaratilgan natijalarni e'tiborsiz qoldiradi.

⁸ <https://president.uz/oz/lists/view/2961>

⁹ Kotler, P, Keller, K. L., Cunningham, P. H., & Sivaramakrishnan, S. (2009). Marketing management (Canadian 13th ed). Pearson Education Canada

¹⁰ Q.J.Mirzayev, M.Q.Jonuzoqov. Xizmatlar sohasi samaradorligi va uni oshirish yo'llari / Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. II son - fevral, 2024, 479-485-b.b.

An'anaviy modellar ko'p jihatdan davriy so'rovlar va xizmatdan keyingi baholashlarga tayanadi, ular doimiy takomillashtirish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni o'z vaqtida taqdim etmaydi. Haqiqiy vaqtda ma'lumotlarning yo'qligi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning sifat yoki samaradorlik masalalariga tezkor javob berish qobiliyatini cheklaydi. Sog'liqni saqlash, ta'lim va mehmondo'stlik kabi ko'plab xizmat ko'rsatish sohalari turli xil xizmat jarayonlari va mijozlar talablarini e'tiborga olgan holda moslashtirilgan ko'rsatkichlarni talab qiladi. Mavjud modellar ko'pincha sohaga oid dastur uchun zarur bo'lgan moslashuvchanlikka ega emas.

1-jadval


Xizmat sifati va samaradorligini baholash modellarining qiyosiy tahlil¹¹.

Mezonlar	SERVQUAL	Ma'lumotlarni konvertatsiya qilish tahlil (DEA)	Tavsiya etilgan umumiy talab
Asosiy e'tibor	Mijoz tomonidan qabul qilingan xizmat sifati	Operatsion samaradorlik va mahsuldorlik	Xizmat sifati va samaradorligiga e'tiborni birgalikda qaratish
Ma'lumotlar turi	Sifatli (so'rovga asoslangan)	Miqdoriy (kirish/ chiqish ma'lumotlari)	Aralash (sifat + miqdoriy + real vaqtda ma'lumotlar)
Real vaqt rejimida monitoring	Yo'q	Yo'q	Mavjud
Sektorning moslashuvchanligi	O'rta - moslashtirishni talab qiladi	Yuqori - tarmoqlar bo'ylab moslashuvchan	Yuqori - moslashuvchan sanoat qo'llanilishi uchun mo'ljallangan
Mijozlar fikr-mulohazalarining integratsiyasi	Kuchli	Zaif	Kuchli va real vaqtda
Operatsion ko'rsatkichlar integratsiyasi	Zaif	Kuchli	Kuchli
Amalga oshirish qulayligi	Yuqori - oddiy tuzilishi	O'rta - texnik tahlilni talab qiladi	O'rta - raqamli vositalar va o'zaro faoliyatni talab qiladi
Asosiy cheklovlar	Ichki samaradorlik ko'rsatkichlariga e'tibor bermaydi	Mijoz yetishmaydi	Raqamli infratuzilma va dastlabki tayyorgarlikni talab qiladi
Eng yaxshi foydalanish holati	Mijozlarga xizmat ko'rsatish, baholash	Birliklar o'rtasida ishlashni taqqoslash	Zamonaviy xizmatlarda yaxlit samaradorlikni boshqarish

Bank xizmati, bir tomondan, bankning potentsial mijozlarning (yuridik va jismoniy shaxslarning) muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda muayyan ehtiyojlarini qondirish niyatining ifodasidir; boshqa tomondan, o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish.

¹¹ Akbarjonovna, U. N., Khujakul ugli, K. B., Shuxratjon qizi, N. M. Improving the Methodology for Assessing Quality and Efficiency in the Service Sector. American Journal of Economics and Business Management 2025, 8(7), 3088-3094.

Bank sohasida samaradorlik oshirish uchun ishonchlilik muhim ahamiyatga ega. Ya'ni bank mijozlarning ishonchiga kirishi lozim. O'z navbatida iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanayotgan bugungi kundagi moliyaviy barqarorlikka erishishi uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash talab etiladi. Bu jihatdan banklarning taraqqiyotida marketing asosiy o'rin egallaydi. Shu bois bugun nafaqat respublikamizda, balki jahonda rivojlangan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan banklar ham marketingga murojaat qilmoqda.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (dona)¹².

Yuqoridagi rasmda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2012-2024-yillar holati o'rganilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012-yilda 56 735 kishi bo'lgan bo'lsa, 2024-yil 1-mart holatiga ko'ra esa, 751 barobar ko'pni ya'ni, 42 596 428 kishini tashkil qilmoqda.

Hukumat, shu jumladan markaziy bankning bank tizimini nazorat qilishi hamda moliyaviy cheklovlarga amal qilish borasidagi talablariga rioya qilish ham banklar tomonidan salmoqli xarajat qilinishiga to'g'ri keladi. Ularni qisqartirish bo'yicha ilk qadamlar sifatida AQSh hukumati tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarni keltirish mumkin¹³.

So'nggi 20-30 yil ichida to'lov tizimlari va raqamli moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanayotganini guvohi bo'lamiz. Ya'ni, banklar tomonidan bankomatlar, bank kartalari faol joriy etilishidan tortib, uzoqdan va istalgan vaqtda katta xajmdagi xizmatlarni taqdim etishgacha, **24/7** xizmatiga o'tish bilan bog'liq katta o'zgarishlar o'z samarasini beribgina qolmay rivojlanishda davom etmoqda.

Shunday ekan, raqamli transformatsiya bank xizmatlari bozorida samarali ishlashning asosiy sharti bo'lishi lozim. Bunday sharoitda prinsipial jihatdan yangi biznes model yaratilib, unda mijozlar bazasini kengaytirish muammolarini hal qilishda an'anaviy tarzda shakllantirilgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqilmoqda, xizmat ko'rsatish sifati va tezligi oshmoqda.

Sun'iy intellekt va bulutli texnologiya bilan bog'liq ma'lumotlarga bo'lgan talabning oshishi tufayli texnik xarajatlar ko'paymoqda. Shunga qaramay, moliyaviy

¹² cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi markaziy banki rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

¹³ Gina Heeb, Trump Advisers Seek to Shrink or Eliminate Bank Regulators, Wall Street Journal, 12.12.2024.

xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalar sog'liqni saqlash, texnologiya, ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiya sohalaridagi korxonalarga qaraganda sun'iy intellektga kamroq mablag' sarflaydilar. Aqlli, maqsadli texnologiyalarga, shu jumladan sun'iy intellektga mablag' sarflash, samaradorlikni oshirish uchun qilingan eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

Dunyoning yetakchi davlatlari bank xizmatlari bozorini rivojlantirishda texnologik yangiliklar, mijozga yo'naltirilgan yondashuv va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan strategiyalar asosida barqaror moliyaviy ekotizimni yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Quyidagi ayrim mamlakatlarning ijobiy amaliyotlarini tadqiq qilish muhimdir.

AQSh tajribasi.

Texnologik integratsiya: AQSh bank tizimi – dunyodagi eng katta va diversifikatsiyalashgan moliyaviy sektor hisoblanadi. “JPMorgan Chase”, “Bank of America”, “Wells Fargo” kabi yirik banklar tomonidan yaratilgan raqamli platformalar, sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar, chatbotlar, shaxsiylashtirilgan maslahatlar hamda real vaqt rejimidagi to'lov tizimlari mijozlar uchun maksimal qulaylik yaratmoqda.

AQShda “fintech” sohasining o'sishi banklar faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Masalan, “Chime” va “SoFi” kabi raqamli banklar bank xizmatlarini 100% onlayn rejimda taqdim etmoqda. Mijozlar mobil ilova orqali hisob ochish, kredit olish, investitsiya kiritish, hamda chet elga pul o'tkazish imkoniyatiga ega. AQSh hukumati esa moliyaviy savodxonlikni oshirish va bank xizmatlarining barcha qatlamlarga yetib borishini ta'minlash maqsadida maxsus grant dasturlarini amalga oshirib kelmoqda.

Buyuk Britaniya tajribasi.

“Open banking” tizimi: Buyuk Britaniyada 2018-yildan boshlab joriy etilgan “Open Banking” tashabbusi bank xizmatlarini tubdan modernizatsiya qildi. Ushbu tizim asosida banklar o'z mijozlari to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni xavfsiz tarzda fintech kompaniyalarga API (Application Programming Interface) orqali ulashadi. Bu esa, mijozlar uchun bir nechta bank xizmatlarini bir ilova ichida boshqarish, xarajatlar monitoringini yuritish, avtomatik jamg'arma tizimlarini sozlash va investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish imkonini bermoqda.

“Monzo”, “Revolut”, “Starling Bank” kabi raqamli banklar Buyuk Britaniya moliya bozorida keng o'rin egallagan bo'lib, ular minimal xarajatlar, yuqori tezlik va maksimal qulaylikka asoslangan xizmatlar taklif qilmoqda. Xususan, “Revolut” mijozlariga real vaqt rejimida 30 dan ortiq valyutada operatsiyalar amalga oshirish imkonini beradi.

Germaniya tajribasi.

Barqarorlik, avtomatlashtirish va “green banking”: Germaniyada bank tizimi an'anaviy mustahkamlik bilan raqamli transformatsiyani uyg'unlashtirgan. “Deutsche Bank”, “Commerzbank” kabi yirik moliya institutlari orqali onlayn bank xizmatlari, elektron identifikatsiya, mobil to'lovlar va mijozga moslashtirilgan raqamli ilovalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, “green banking” – ya'ni ekologik jihatdan barqaror loyihalarni moliyalashtirish Germaniyada bank strategiyalarining ajralmas qismiga aylangan.

Berlindagi eng yirik banklardan biri - Berliner Sparkasse o'z mijozlari uchun kovorking maydoni – odamlar ish joyi, WI-FI, yig'ilish xonasi, rozetkalar va kompyuterlardan foydalanishlari mumkin bo'lgan maxsus jihozlangan xonani ochdi. U yerdan bepul foydalanish uchun mijozda ushbu bankning kartasi bo'lishi kerak. Ushbu yangilik o'z ish joyiga ega bo'lmagan odamlarga qaratilgan. Mahalliy banklar tomonidan bunday ish joylarining ochilishi yosh avlod mijozlarining qo'shimcha oqimini yaratadi.

Xorijiy banklarda bank xizmatlari samaradorligini oshirishda marketingdan foydalanishning bir qator muvaffaqiyatli holatlari mavjud.

O'zbekistonda bank marketingi yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh mablag'larini to'plash va ularni depozitlar va aksiyadorlik kapitaliga aylantirishga qaratilgan xorijiy banklarning tajribasidan foydalanish yordamida rivojlanmoqda. Bank marketingi sohasida xorijiy tajribadan foydalanish mahalliy banklar faoliyati va marketingini amalga oshirishga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining **“Bank xizmatlari bozorining marketing tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida bank sektori rivojlanishida marketing instrumentlaridan foydalanish, bank xizmatlari bozoridagi raqobatni baholash, bank xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketing tahlili ochib berilgan.

Hozirgi zamon global iqtisodiyotida bank sektori muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish, aholining turmush darajasini oshirish va boshqa muhim jarayonlarda bank xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Banklarning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarning qoniqishini yaxshilash va foydani oshirish uchun bank marketingining samarali instrumentlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bank marketingi – bu bank xizmatlarini mijozlarga taqdim etish va sotish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish bilan bog'liq faoliyatdir. Bank marketingining asosiy maqsadi – bankning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarning qoniqishini yaxshilash va foydani oshirish.

Bank marketingi quyidagi muhim vazifalarni hal qiladi:

mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o'rganishga, ularning talablarini qondirishga mo'ljallangan mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga imkon beradi;

bankning raqobatbardoshligini oshirishga, mijozlarning diqqatini jalb qilishga va boshqa banklar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashishga yordam beradi;

bankning brend imidjini yaxshilashga, bankning obro'sini oshirishga va mijozlarning ishonchini qozondirishga yordam beradi;

bankning foydasini oshirishga, xizmatlarni taqdim etish samaradorligini yuksaltirishga va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Bank marketingining asosiy instrumentlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bank xizmatlarining turlari, sifati, narxlari va taqdim etilish shakllarini belgilash;
xizmatlarning narxlarini belgilash, narxlarni tanlash strategiyasini ishlab chiqish va raqobatchilarning narxlarni belgilash siyosatini tahlil qilish;

xizmatlarni mijozlarga taqdim etish kanallarini belgilash, bank filiallarining joylashuvini optimizatsiya qilish va onlayn xizmatlarni rivojlantirish;

xizmatlarni reklama qilish, mijozlarning diqqatini jalb qilish va bankning brend imidjini yaxshilash uchun reklama kompaniyalarini olib borish;

mijozlar bilan samarali aloqa qurish, ularning ehtiyojlarini aniqlash, muammolarini hal qilish va mijozlarning sadoqatini oshirish.

Marketingning zamonaviy instrumentlari turli tuman bo'lib, ulardan eng ommaboplari quyidagilardir¹⁴:

1. Raqamli strategiyani ishlab chiqish. Raqamli strategiya - bu marketing rejasi bo'lib, uning maqsadi biznesni umumiy rivojlantirish va o'zgartirish, raqamli vositalar orqali mahsulot yoki brendni ommalashtirishdir.

2. Mahsulotning ijobiy jihatlari va afzalliklarining batafsil tavsifiga ega qulay va ma'lumot beruvchi veb-sayt yaratish.

3. Qidiruv tizimlarida veb-saytlarni reklama qilish. Yandex va Google-dagi reklama xizmatlar uchun eng samaralisi, biroq ijtimoiy tarmoqlarda xizmatlar reklamasining eng murakkabi hisoblanadi. Chunki, undan foydalanuvchilarning xususiyatlari, talabning chastotasi va mahsulotning murakkabligi farq qiladi.

4. Kontekstli reklamadan foydalanish. Kontekstli reklamanning asosiy afzalligi shundaki, reklama qiziquvchilarga ko'rsatiladi. Reklama tizimlari taklifni maqsadli auditoriyangizga aniqroq yetkazish uchun turli segmentlar uchun sozlamalardan foydalanish imkoniyatiga ega.

5. Kontent marketingi. Kontekstli reklama saytga tashrif buyuruvchini jalb qilishga yordam beradi, lekin uning e'tiborini tortmaydi, mahsulotning boshqalardan afzalliklarini tushuntirmaydi va uni sizning foydangizga tanlov qilishlariga ishonrtirmaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, internetdan foydalanishning eng mashhur sababi ma'lumot qidirishdir: 63% foydalanuvchi dhu sababdan murojaat qiladi.

6. SMM. Moliyaviy tashkilotlarda SMM yordamida muvaffaqiyatga erishishga shubha bilan qaraladi. Ushbu segmentda uzoq muddatli ulanishlar yaxshiroq samara beradi, xaridorlar tanlashda ko'pincha hamkasblarining tavsiyalariga tayanadilar va mahsulot kam uchraydigan yoki shunchalik qimmatligidan mijoz uni ijtimoiy tarmoqlarda izlamasligi mumkin.

Har bir sohada bo'lgani kabi, marketing instrumentlarining ham ijobiy jihatlari va kamchiliklari mavjud.

2-jadval

Marketing instrumentlarining afzalliklari va kamchiliklari¹⁵

Marketing instrumenti	Afzalliklari	Kamchiliklari
Ijtimoiy tarmoqlar	Mijozlar bilan tezkor aloqa. Turli budjetlarga mos reklama mavjud.	E'tiborni jalb qilish uchun raqobatning yuqoriligi. Kontentni doimiy ravishda yangilab turish lozim.
E-mail marketing	Mijozlar bilan bevosita aloqa. Arzon.	Xatning spamga tushib qolish xavfi. Bunday xatlarni kam odam ochadi.


¹⁴ Е.В. Кузьмина, А.А. Агапова. Современные маркетинговые инструменты промышленного предприятия. / Economy and Business: Theory and Practice, vol. 1-1 (95), 2023. DOI:10.24412/2411-0450-2023-1-1-159-161

¹⁵ <https://sky.pro/media/luchshie-marketingovye-instrumenty-dlya-vashego-biznesa/>

Kontent marketing	Mijozlarning ishonchi va sodiqligini yaratadi. Kompaniyaning obro'sini oshiradi.	Sifatli kontent yaratish uchun ko'p vaqt sarflanadi. Kontentni doimiy ravishda yangilab turish kerak.
